

# PLITONIT

## PROFESSIONAL BO'LISH OSON



**PLITONIT Grunt 1 PROFI – ichki va tashqi ishlar uchun chuqur kirib boruvchi praymer-konsentrat**



Ishlarning keng ro'yxatini bajarish uchun mo'ljallangan universal mahsulot. Pollarni sementli, gips va gips-sementli asosida gruntovka qilish. Gipsli, sementli, sement-ohakli materiallar bilan suvalgan devorlarni, gipsokarton listlarni eritma aralashmalarini ishlatishdan oldin, shuningdek gulqog'ozlarni bo'yash va yopishtirishdan oldin gruntovkalash. Grunt 1 PROFI asosni mustahkamlash, asosning suv shimuvchanligini pasaytirish, keyingi qoplamlar bilan adgeziyani oshirish, suvning muddatidan oldin chiqib ketishini kamaytirish va ichki va tashqi ishlarni bajarishdan oldin asosni changsizlantirish maqsadida qo'llaniladi.

**Qadoqlash — 0,9 l, 3 l, 10 l plastikli kanistr.**

- Suyultirish konsentrati 1:5
- Chuqur kirib boruvchi
- Asosni mustahkamlaydi va changsizlantiradi
- Asosning suv shimuvchanligini kamaytiradi
- Keyingi qoplamlar bilan adgeziyani oshiradi
- Saqlash paytida muzlatish mumkin
- Ichki va tashqi ishlar uchun gruntovka

### Material sarfi

Qo'llanish sohasiga qarab 1 m<sup>2</sup> ga suyultirilgan praymerga 120-300 ml.

### Ish olib borish sharoitlari

Havo, asos va qo'llashga tayyor bo'lgan praymerning harorati ishlarni amalga oshirishsh vaqtida +5 °C dan kam bo'lmasligi kerak. Tashqi ishlarni amalga oshirishda ishlov berilgan yuza quriguncha atmosfera yog'inlaridan himoyalanishi kerak.

### Asosni tayyorlash

Gruntlashdan oldin yuza chang, kir, yog'lardan tozalanadi. Qoplamaning eski va mustahkam bo'limgan qismlarini yaxshilab olib tashlash kerak.

### Qo'llash usuli

Konsentratni suyultirish uchun suv ta'minotidan ichimlik suvi olinadi. Suyultirish va qo'llashdan oldin praymerni yaxshilab aralashtirish kerak. Suv bilan quyidagi nisbatda suyultiriladi: pardozlash aralashmalaridan foydalanishdan va 1:4-1:5 nisbatda yelimlashdan oldin; tekislagichlardan foydalanishdan oldin va 1:2-1:4 nisbatda bo'yashdan oldin. Vertikal yuzalar valik yoki purkagich yordamida gruntovkalanadi.

Quyma pollarni to'ldirish uchun gruntovkalashda qo'llashga tayyor praymer asosga quyiladi va valik bilan tekislanadi, bunda o'yqlar va ko'lmaklarga ruxsat etilmaydi yoki purkagich yordamida surtiladi. Agar grunt 5-10 daqiqa davomida asosga shimilib, qurigan bo'lsa, uni qayta gruntrash kerak. Gruntning birinchi qatlami to'liq qurigandan keyin qayta gruntrash va pardozlash ishlari amalga oshiriladi Qatlamlar orasidagi qurish vaqtini gruntning suyulish darajasiga, asosning turiga va harorat sharoitlariga bog'liq. Birinchi qatlam surtilgandan so'ng taxminan 30-60 daqiqa o'tgach, qayta gruntovkalash ishlari bajariladi. Yuzani qayta gruntrashga tayyorligini baholash mezoni ishlov berilgan yuzaga qo'yilgan qog'oz varag'ida namlanish izlarining mavjud emasligi hisoblanadi.

### **Diqqat**

Ishlarni bajarish jarayonida gruntni vaqtiga vaqt bilan aralashtirish tavsiya etiladi. Asbob va idish qo'llanilgandan keyin darhol suv bilan yuviladi. Ko'rsatilgan xarakteristikalar atrof-muhit harorati 20+2 °C, havoning nisbiy namligi 60+10% bo'lganda haqiqiy hisoblanadi. Ishlarni bajarishda siz umumiyligida qurilish ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar va qurilishda xavfsizlik choralariga amal qilishingiz kerak. Tekislagichlarni qo'llashdan oldin pollarni gruntrash uchun praymer PLITONIT Grunt SuperPol PROFI dan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Ehtiyyot choralarini**

Ishlarni bajarishda qo'lqoplardan foydalaning. Praymerning teri va ko'zlarga tegishidan saqlaning. Ko'zlarga tushganda darhol ko'p miqdorda suv bilan yuvib tashlang, shifokorga murojaat qiling. **Tashish va saqlash shartlari**

-50 °C dan +40 °C gacha bo'lgan haroratda zinch yopilgan idishda, to'g'ridan to'g'ri quyosh nurlaridan saqlang. -50 °C haroratda 5 martagacha muzlatishga ruxsat beriladi, eritilgandan keyin u o'z xususiyatlarini saqlab qoladi. Muzlatilgandan so'ng, uni xona haroratida to'liq eritilmaguncha, majburiy isitishsiz saqlash kerak. Ishlab chiqaruvchining ochilmagan tarasida saqlash muddati ishlab chiqarilgan kundan boshlab 24 oy. Ishlab chiqarilgan sanasi qadoqlashga qarang.

### **Tarkibi**

Polimerning suvli dispersiyasi, modifikatsiyalovchi qo'shimchalar.

### **Ishlab chiqaruvchi kafolati**

Ishlab chiqaruvchi iste'molchi tomonidan tashish, saqlash shartlariga va ushbu yo'riqnomanining ko'rsatmalariga rioya qilinganda mahsulotning TU 20.30.11-212-51552155-2023 talablariga muvofiqligini kafolatlaydi. Ishlab chiqaruvchi material bilan ishlash texnologiyasiga rioya qilmagan taqdirda, shuningdek uni mazkur yo'riqnomada nazarda tutilmagan maqsadlarda va shartlarda qo'llaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

### **0,9 l kanistr uchun logistik ma'lumotlar**

Individual shtrix-kod 4607013043336

Palletdagi kanistrlar soni – 480 dona.

### **3 l kanistr uchun logistik ma'lumotlar**

Individual shtrix-kod 4607013040489

Palletdagi kanistrlar soni – 144 dona

### **10 l kanistr uchun logistik ma'lumotlar**

Individual shtrix-kod 4607013040496

Palletdagi kanistrlar soni – 40 dona